

---

## Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan xabarga MUNOSABAT

Joriy yilning 1 noyabr kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “Qo’shtepa tumani Mirishkor ko’chasini asfalthash to’xtab qoldi. Mana, mutasaddilarning yodiga soldik. Endi ajab emas yo’l to’liq asfalthansa...” degan mazmunda xabar tarqatildi.

Ushbu murojaat ismi-sharifi, xatto yashash manzili ham to’liq ko’rsatilmagan fuqaro tomonidan yozilgan bo’lsada, tegishli idora xodimlari ishtirokida o’rganildi.

Quvurboshi mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi Mirishkor ko’chasining 100 metr qismi, joriy yil sentyabr oyida mahalliy byudjet hisobidan asfalthashtirilgan.

Hozirda ushbu ko’chani yana 300 metr qismini asfalthashtirish uchun iqtisod qilingan mablag’lar hisobidan loyiha-smeta hujjatlari rasmiylashtirilmoqda. 2020 yil noyabr oyi ichida Mirishkor ko’chasining 300 metr qismida asfalthashtirish ishlarini amalga oshirilishini murojaatchilarga ma'lum qilamiz.

**Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2020-11-02 14:55:14